

TASVIRIY IFODA VA RUHIY KECHINMALAR



Qosimova Sevara Vahobjanovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Chizmatasvir kafedrası o‘qituvchisi

sevarakasimova585858@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19662772>

Annotatsiya. Maqolada tasviriy san’atning inson psixologiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Xususan, chizmatasvir va rangtasvir orqali inson hissiyotlari va ichki ruhiy kechinmalarini ifodalash jarayoni tahlil qilingan. Ranglarning psixologik ta’siri, tasviriy vositalarning inson ongiga ta’siri hamda san’atning estetik va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, chizmatasvir, rangtasvir, psixologiya, rezonans, ranglar psixologiyasi, emotsional ifoda, estetik tarbiya, art-terapiya.

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь изобразительного искусства и психологии человека. В частности, анализируется процесс выражения человеческих чувств и внутренних переживаний посредством рисунка и живописи. Также научно обосновано психологическое влияние цветов, воздействие изобразительных средств на человеческое сознание, а также эстетическое и воспитательное значение искусства.

Ключевые слова: изобразительное искусство, рисунок, живопись, психология, резонанс, психология цвета, эмоциональное выражение, эстетическое воспитание, арт-терапия.

Abstract. This article examines the relationship between visual art and human psychology. In particular, the process of expressing human emotions and inner experiences through drawing and painting is analyzed. The psychological effects of colors, the influence of visual means on human consciousness, and the aesthetic and educational significance of art are also scientifically substantiated.

Keywords: visual art, drawing, painting, psychology, resonance, color psychology, emotional expression, aesthetic education, art therapy.

Tasviriy san’at insoniyat madaniy merosining muhim qismi bo‘lib, u inson tafakkuri, hissiyoti va ruhiy dunyosining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson qadim zamonlardan boshlab chiziq, shakl va ranglar orqali o‘z fikr va tuyg‘ularini ifodalashga intilgan. Shu sababli tasviriy san’at faqat estetik faoliyat emas, balki inson psixologiyasini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Tasviriy san’at orqali inson nafaqat atrof-muhitni tasvirlaydi, balki o‘zining ichki ruhiy holatini ham namoyon qiladi. Shu jihatdan san’at va psixologiya o‘rtasida o‘zaro uzviy bog‘liqlik mavjud. Taniqli mutaxassis, Fransiya Texnika Estetika insitutining asoschisi Jak Venoning aytishi bo‘yicha: “Rang har narsaga qodir: u nur, xotirjamlik va hayajonni keltirib chiqara oladi. U garmoniya vujudga keltirishi va larzaga solishi mumkin; undan mo‘jizalar kutsa bo‘ladi, ammo falokatga olibkelishi ham mumkin” deb ta’kidlab o‘tgan.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida san'atning inson shaxsini rivojlantirishdagi o'rni alohida e'tirof etiladi. Ayniqsa yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlarning ma'naviy va madaniy rivojiga alohida e'tibor qaratib, ularni san'at va madaniyatga jalb etish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini ta'kidlab kelmoqda.

Tasviriy san'atdagi rasmlar o'zining ishlanish texnikasi, ranglarning uyg'unlashuvi va janrlari bilan insonni ayni vaqtdagi kayfiyatini, hissiy holatiga katta ta'sir ko'rsata oladi. Shuningdek san'at asarlari insonni go'zallikdan bahramand bo'lishga va uni qadrlashga undaydi. Ko'plab sur'atlar insonni o'tmishi va eski Shirin xotiralarini yodga solishi katta ehtimol bilan mavjud. Tarixiy va diniy sur'atlar ma'naviyatni ongning o'sishiga xizmat qiladi. San'at asarlari insonni stress, depressiya va real hayot tashvishlaridan bir muddatga bo'lsada chekinishga va xotirjamlikni saqlashga ancha yordam beradi. Ko'pinchalik esa manzara va abstract sur'atlar insonni ruhiyatini ancha tinchlantiradi va dam oldiradi. Shu o'rinda aytib o'tish mumkinki, manzara janri asosan tabiatni aks ettirish, atmosferani va yorug'likni tasvirlash, kenglik va tinchlikni o'z ichiga oladi. Rus rassomi Isaak Levitanning asarlarida aynan shu hislatlarni ko'rish mumkin. Abstraktda esa shakllar, chiziqlar va ranglar orqali insonni hissiyoti va kayfiyatini ifodalab beradi. Vasiliy Kandinskiy bu yo'nalishning asoschilaridan biri hisoblanadi. San'at asarlar asosan insonni fikrlash doirasini kengaytirish, yangi g'oyalarni yaratish va hayotni boshqa tomonlama va boshqa burchakdan ko'rishga undaydi.

Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri — insonning ichki hissiyotlari va fikrlarini badiiy shaklda ifodalashdir. Bu jarayon tasviriy ifoda deb ataladi. Tasviriy ifoda chiziq, shakl, kompozitsiya, yorug'lik va ranglar orqali amalga oshiriladi.

Chizmatasvir san'atida chiziq eng muhim tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. Turli xil chiziqlar inson ruhiy holatini turlicha ifodalaydi. Masalan, keskin va notekis chiziqlar hayajon, bezovtalik yoki dramatik kayfiyatni ifodalashi mumkin. Yumshoq va silliq chiziqlar esa osoyishtalik va muvozanatni bildiradi.

San'atshunos olim Rudolf Arnhem tasviriy san'atni inson idroki bilan bog'lab o'rganib, vizual shakllar inson tafakkuri va hissiyotlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tasviriy san'at insonning vizual idrokini rivojlantiradi va hissiy tajribasini boyitadi.

Tasviriy san'atning ruhiy jarayondagi roli tasviriy san'at shaxsning ichki dunyosini, hissiyotlarini va tasavvurlarini tashqi ifodaga aylantirish imkonini beradi. Rasm chizish jarayoni insonni ichki hissiyotlarini ifodalashga yordam beradi. Rang tasviriy san'atning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, u inson kayfiyati va emotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ranglar orqali rassom ma'lum ruhiy holatni yaratishi va tomoshabinning hissiyotlariga ta'sir etishi mumkin. San'atda ishlatiladigan ranglar ham ruhiy holatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qizil rang odatda energiya, kuch va harakat ramzi sifatida qabul qilinadi. Ko'k rang esa tinchlik va barqarorlik hissini uyg'otadi. Yashil rang tabiat va muvozanatni ifodalasa, sariq rang quvonch va optimizm bilan bog'lanadi.

Ranglarning psixologik ta'siri nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Ranglarning uyg'unligi san'at asarining umumiy kayfiyatini belgilaydi va tomoshabinning emotsional qabul qilish jarayoniga ta'sir qiladi.

Ijodiy jarayonning yana bir psixologik mexanizmi — emotsional holatdir. San'at hissiyotga tayanadi, hissiyot esa ijodning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Rassomning kayfiyati, ruhiy kechinmalari, ichki holati tasviriy ifodaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. B.M. Teplov o'z tadqiqotlarida san'atkor shaxsining emotsional sezgirligini uning

ijodiy imkoniyatlarining muhim omili sifatida ta'riflagan. Shuning uchun rassomning ruhiy barqarorligi, motivatsiyasi va ichki uyg'unligi ijodiytafakkur samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san'at insonning ichki dunyosini ochib berish imkoniyatiga ega. Rassom o'z asarida shaxsiy hissiyotlari, hayotiy tajribasi va ruhiy holatini aks ettiradi. Shu sababli san'at asarlari ko'pincha inson ruhiyati bilan bog'liq chuqur mazmuni o'zida mujassam etadi. San'at asarini tomosha qilgan inson ham muayyan hissiyotlarni boshdan kechiradi. Bu jarayon psixologiyada emotsional rezonans deb ataladi. Ya'ni tomoshabin asarda aks etgan hissiy holatni o'z ruhiyatida his qilishi mumkin. Hozirgi kunda tasviriy san'at psixologiyada ham qo'llanilmoqda. Xususan, art-terapiya usuli orqali insonlar rasm chizish jarayonida o'z hissiyotlarini erkin ifoda etib, ruhiy zo'riqishdan xalos bo'lishlari mumkin. Bu esa tasviriy san'atning psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Art-terapiya insonning ichki dunyosini san'at orqali ifodalashga asoslanadi. Ko'pincha inson o'z hissiyotlarini so'z bilan ifodalashga qiynaladi, ammo tasvir, rang va shakllar orqali ularni erkinroq ifodalashi mumkin.

Tasviriy san'at insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va hissiyotlarini ifodalashda muhim vositadir. Rassomlar o'z asarlarida milliy qadriyatlar, shaxsiy kechinmalar va jamiyat ruhiyati orqali hissiy tafakkur bilan muloqot qiladi. O'zbekiston tasviriy san'ati esa boy madaniy an'ana va zamonaviy ijodiy izlanishlar uyg'unligida shakllangan.

Rassomning tafakkuri oddiy kuzatuvdan farq qiladi. U har bir predmetning ortida yashirin ma'no borligini his etadi, hayotdagi voqelikni o'z tasavvurining filtri orqali o'tkazadi va uni badiiy shaklga keltiradi. Obraz yaratish davomida ongda turli g'oyalar kesishadi, bir-birini to'ldiradi yoki qarama-qarshi mazmun kasb etib, yangi badiiy ko'rinish paydo qiladi. Rassomning hayoti davomida yig'ilgan tajribalari ham ijodiy jarayonga ta'sir ko'rsatadi: ko'rgan manzaralari, eshitgan so'zlari, o'tkazgan quvonch va iztiroblari obrazlarda o'z aksini topadi. Badiiy ijodning asosida tasavvur turadi. Tasavvur qanchalik keng bo'lsa, rassom shunchalik erkin fikrlay oladi. U real hayotda mavjud bo'lmagan tasvirlarni ongida jonlantiradi, ularni yangi shakl va ranglar vositasida ifodalaydi. Shuning uchun tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan inson tasavvurini doimo boyitib borishi, turli ko'rinishlarni kuzatib, miyasida qayta ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

O'zbekiston rassomlarining ijodida tasviriy ifoda va ruhiy mazmun bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Rang, chizma, kompozitsiya va obrazlar orqali rassomlar inson ruhiyatini, tarixiy va madaniy xotirani ifodalaydi. Chingiz Akhmarov, Ural Tansiqbayev, Alisher Mirzo, Ataxan Allabergenov va Zebo Ganieva, Sevara Qosimova, Feruza Erkaboyeva ijodida bu uyg'unlik turlicha namoyon bo'ladi, lekin har bir asar tomoshabinning hissiyot va ichki dunyosini boyitadi. Tasviriy san'at shu tariqa nafaqat tashqi ko'rinishni, balki inson ruhiyatini ham ifodalaydi.

Chingiz Akhmarov O'zbekiston tasviriy san'atining klassik namoyandalaridan bo'lib, rassom milliy miniaturaning an'alarini davom ettirgan ijodkordir. Uning ijodida xalq hayoti, tarixiy personajlar va milliy xarakter tasvirlari chuqur hissiy mazmun bilan boyitilgan. Chingiz Akhmarov asarlarida rang, chizma va kompozitsiya orqali milliy ruhiyat ifodalangan. Masalan, uning sahna va portretlarda ishlatilgan an'anaviy motivlar insonning ichki holati bilan uzviy bog'liq bo'ladi: tasvirlangan personajlar hissiy turg'unlik, hayotiy chidamlilikni o'zida mujassamlashtiradi. Bu holat tomoshabinni milliy tarixiy ruhiyat va shaxsiy hislarni anglashga yetaklaydi. Uning "Buhora raqsi" yoki "Xorazm raqsi" kabi asarlarida nafaqat tasviriy go'zallik, balki milliy xarakterning ruhiy kechinmalari seziladi.

Feruza Erkaboyeva ijodida tasviriy ifoda o'ziga xos nafis uslubda, milliy xarakter tasvirlari chuqur hissiy mazmun bilan boyitilgan. Uniga buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asari Sharq

adabiyoti va madaniyating eng yuksak asarlaridan “Lison ut-tayr” ga bag’ishlangan tasviriy san’at asarida personajlarning hissiy holatini tasvirlashda rang, kompozitsiya va ruhiy dunyosi mahorat bilan ifoda etilgan. Bu holatda rassom sovuq ranglar, keng fazo va tabiat unsurlaridan foydalanib qahramonlarning ruhiy dunyosini ochib bergan.

Alisher Mirzo zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atining eng taniqli vakillaridan biri bo‘lib, u o‘z ijodida impressionizm va abstraktsiya elementlarini milliy motivlar bilan uyg‘unlashtiradi. Alisher Mirzoning peyzaj va hayotiy sahnalari ko‘pincha ochiq ranglar bilan ishlangan bo‘lib, bu san’at oynasidagi ruhiy kechinmalarni yorqin ifodalaydi. U rang orqali hissiyotlarni tasvirlashda mutlaqo ozod bo‘lib, yorug‘lik, ranglar uyg‘unligi orqali tinchlik, tabiat bilan uyg‘unlik, hayotiy totuvlikni ifodalaydi. Shu bilan birga abstrakt elementlar inson tasavvuridagi hissiy murakkablikni aks ettiradi. Alisher Mirzo asarlari inson ruhiyatini tasviriy san’at orqali ochib beradi. “Eski shahar og‘li” shahar va tarixiy ruhiyatni, “Toshkent qo‘shig‘i” shahar ritmi va hissiy bog‘lanishni, naqshlar va ranglar esa ichki uyg‘unlik va tinchlikni ifodalaydi. Shu tariqa Mirzo ijodi inson ruhiyati va hissiyotlarining murakkab qatlamlarini tasviriy san’at vositasida ochib, tomoshabinning estetik va hissiy tafakkurini boyitadi.

Psixologiya sohasida art-terapiya insonning emotsional muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Art terapiya psixologiya va san’atning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan samarali usul hisoblanadi. Rangtasvir esa ushbu jarayonda muhim vosita bo‘lib, insonning ichki dunyosini ifodalashga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida inson o‘zining ichki kechinmalarini ong ostidan chiqarib, ularni badiiy shaklda namoyon etadi. Bu esa ruhiy yengillikni ta’minlaydi. Art-terapiya ayniqsa bolalar bilan ishlashda samarali hisoblanadi. Bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini gap bilan tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli rasm chizish orqali ular o‘z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tasviriy san’at asarlari orqali inson nafaqat estetik zavq oladi, balki ma’naviy jihatdan ham boyiydi. Shu sababli tasviriy san’at jamiyat hayotida estetik hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim omil hisoblanadi. Avvalo, tasviriy san’atning estetik ahamiyati shundan iboratki, u insonlarda go‘zallikni ko‘ra bilish va qadrlash qobiliyatini shakllantiradi. Rassomlik, haykaltaroshlik, grafika va amaliy san’at asarlari orqali inson atrof-muhitdagi go‘zallikni chuqurroq his etadi. Ranglar uyg‘unligi, shakl va kompozitsiyaning mukammalligi tomoshabinga estetik zavq bag‘ishlaydi. Bunday asarlar insonning didini rivojlantirib, go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Tasviriy san’atning yana bir muhim jihati uning tarbiyaviy ahamiyatidir. San’at asarlari orqali insonlarga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ezigulik, insonparvarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Tarixiy voqealarni aks ettirgan rasmlar yoki milliy qadriyatlarni ifodalovchi asarlar yosh avlodni o‘z xalqining tarixi va madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, san’at asarlari insonning fikrlash doirasini kengaytirib, unda mustaqil mushohada qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Rassomlar o‘z asarlarida ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya, shakl va yorug‘lik orqali tomoshabinga estetik zavq bag‘ishlaydilar. Bunday asarlar inson qalbida go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni kuchaytiradi. Masalan, mashhur golland rassomi Vincent van Goghning *The Starry Night* asari san’at tarixidagi eng mashhur kartinalardan biridir. Bu asarda rassom tungi osmonni o‘ziga xos ranglar va dinamik shakllar orqali tasvirlagan. Moviy va sariq ranglarning uyg‘unligi tomoshabinga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi. Asar orqali tabiat go‘zalligi va insonning ichki kechinmalari ifodalanadi. Yana bir mashhur asar — Leonardo da Vinci yaratgan *Mona Lisa* kartinasidir. Ushbu asar san’at tarixida portret janrining eng mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. Asardagi sirli tabassum, kompozitsiyaning muvozanati va ranglarning nafisligi tomoshabinda chuqur estetik taassurot qoldiradi. Bu asar inson go‘zalligini badiiy ifodalashning

yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Ko'plab rassomlar o'z asarlarida jamiyat muammolari, inson hayoti va tarixiy voqealarni tasvirlab, tomoshabinni fikrlashga undaganlar. Masalan, rus rassomi Ilya Repinning Barge Haulers on the Volga asari oddiy mehnatkash insonlarning og'ir hayotini tasvirlaydi. Kartinada Volga daryosi bo'yida og'ir yuk tortayotgan odamlar aks ettirilgan. Rassom bu orqali ijtimoiy adolatsizlikni ko'rsatadi va tomoshabinni inson qadr-qimmatini haqida o'ylashga undaydi.

Tasviriy san'at yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Rasm chizish jarayonida o'quvchilar tasavvurini kengaytiradi, ranglarni uyg'unlashtirishni o'rganadi va estetik didini shakllantiradi. Shu bilan birga, tasviriy san'at mashg'ulotlari sabr-toqat, diqqat va aniqlik kabi muhim sifatlarini ham rivojlantiradi.

Mashhur rassom Pablo Picassoning "Guernika" asari san'atning tarbiyaviy kuchini yaqqol namoyish etadi. Bu asar urush dahshatini tasvirlab, insonlarni tinchlikni qadrlashga undaydi. Kartinadagi dramatik shakllar va keskin tasvirlar tomoshabinga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Tasviriy san'at va psixologiya o'rtasida o'zaro yaqin bog'liqlik mavjud. Chiziq, shakl va ranglar orqali inson o'zining ichki hissiyotlarini ifoda etadi. Ranglarning psixologik ta'siri esa san'at asarlarining tomoshabin ruhiyatiga ta'sir qilishida muhim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at insonning estetik dunyoqarashini rivojlantiradi, uning ijodiy tafakkurini boyitadi va ruhiy holatini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi. Shu sababli tasviriy san'atni rivojlantirish va yoshlarni san'atga jalb etish jamiyatning madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rudolf Arnheim. *Art and Visual Perception*. The regents of the University of California. SBN 571 081541. -B 490-491
2. Boris Nemenskiy. Педагогика искусства. Москва. 2012 ISBN 978-509-023261-6. – B 80-82.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. 28.01.2022 Pf-60 son
4. Pedagogika va psixologiya asoslari. O'quv qo'llanma. 2014 ISBN 978-9943-4267-9-5, -B 76-78
5. Khjaniyazov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. ART AND DESIGN, 2024 ISSN: 2660-6844, -B.18-21.
6. Ўзбекистон тасвирий санъати. – М.: “ГАЛАРТ”, 2013. – 232 б.
7. Ҳақимов А. История Искусств Узбекистана. Т; 2018
8. Рогова Т. Молодые художники Узбекистана. - 1977.
9. Qo'ziyev T tahriri ostida. "Ijodimiz haqida gapirsak" grafika, haykaltaroshlik albomlar turkumi. 1-J.T-2006.-B.-16
10. Mamatov U.N. STUDY OF THREE PORTRAITS OF THE GREAT POET OF THE MIDDLE AGES, ALISHER NAVOI. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN —
11. Асқарова З. Ўзбекистон замонавий тасвирий санъатида аёллар образи. //Диссертация. – Т.: К.Бехзод номидаги МРДИ, 2021. – 150 б.
12. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). //Тахрир ҳайъати: Ҳ.Караматов, Н.Жўраев, Т.Кўзиёв ва бошқалар. Илмий муҳаррир: А.Ҳақимов. – Т.: Шарқ, 2001. – 240 б.
13. Erkabayeva F.A Yangi O'zbekiston mahobatli rangtasvir san'atining bugungi kundagi taraqqiyot yo'li, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. – B. 96-100
14. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40